

## ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYAT KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Ahmadaliyev Rashidxon Abdulpatto o'g'li**

**O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**

**Akademiyasi kunduzgi ta'lim 3-o'quv kursi kursanti**

**Farg'ona viloyati Buvayda tumani Xasanqo'rg'oncha MFY Mixchagar qishlog'i**

**"Hamjihat" ko'chasi 65-uy.**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408590>**

**Annotatsiya:** Muallif mazkur maqolada Ichki ishlar organlari faoliyat ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosiy yo'nalishlari va o'ziga xos jihatlari va ushbu faoliyatni hozirgi kunfagi ahamiyati to'g'risida yoritgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, tahlil, axborot-tahlil faoliyati, departament.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan taraqqiyotli zamonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uni oldini olish borasida ichki ishlar organlari faoliyati xar tomonlama zamon talablariga javob beradigan darajada isloh qilinmoqda. Islohotlar jarayonida ichki ishlar organlarining barcha sohaviy xizmatlarini takomillashtirish va ularning moddiy-texnik ta'minotini yanada yaxshilash, faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu chora tadbirlarning barchasi qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgandir. Ichki ishlar organlari faoliyatida axborot-tahlil ishini samarali yo'lga qo'yish ham ushbu vazifalarni amalga oshirishga yaqindan yordam beradi.

Ma'lumki, mavjud ijtimoiy hayotdagi ob'ektiv qonuniyatlar hamda sub'ektiv omillarning o'zaro aloqadorligi qanchalik to'g'ri inobatga olinsa, jamiyat rivoji shunchalik muvaffaqiyatliroq kechadi, uning barcha ijtimoiy institutlari shunchalik samarali faoliyat ko'rsatadi. Shu bois jamiyat jarayonlarini boshqarish – ijtimoiy rivojlanishning ob'ektiv qonuniyatlarini hisobga olishga asoslangan real siyosat yuritish demak. So'nggi yillarda ichki ishlar organlari boshqaruv ta'siri ko'rsatadigan bevosita soha bo'lmish ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga ilmiy yondashuvning ahamiyati oshdi. Siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar jadal kechayotgan, ijtimoiy tizimlarni boshqarish murakkablashib borayotgan sharoitda ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlash sohasidagi boshqaruv ta'sirining samaradorligi ko'p jihatdan qaror topayotgan vaziyatni muntazam tahlil qilishning chuqur va har tomonlamaligi hamda shu asosda undagi o'zgarishlar bo'yicha chora ko'rish yuzasidan o'z vaqtida boshqaruv qarorlari ishlab chiqilishiga bog'liq

Ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalar va funktsiyalarning ko'payishi hamda murakkablashuvi, ularni boshqarish samaradorligiga talablarning oshishi va ular ishining borgan sari jadallashishi huquqiy tartibning ahvoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish masalalariga e'tiborning kuchayishiga olib kelmoqda. Chunki ichki ishlar organlari ushbu huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni hamda ularga qarshi kurashda davlat va jamiyat tashkilotlari ko'radigan choralarni muntazam o'rganish asosidagina muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi mumkin.

Ichki ishlar organlari faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilishning maqsadi – amaldagi qonun hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali ta'minlash uchun uning faoliyat yo'nalishlarini amalga oshirish sohasidagi natijalarini tahlil qilish orqali mazkur yo'nalishlarni

takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun bir qator asosiy vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

ichki ishlar organlari faoliyati ko'rsatkichlarini aniqlash va ifodalash;

ko'rsatkich manbaalarini aniqlash; faoliyat ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarni izlash va olish;

ma'lumotlarni saralash va qayta ishlash; ichki ishlar organlari faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

tahlillar natijalari bo'yicha xulosa, taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ichki ishlar organlari faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilarda namoyon baladi:

ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va samaradorligini kompleks o'rganish, tahlil qilish va baholash;

ichki ishlar organlariga qonun bilan yuklatilgan vazifa va vakolatlarning amaliyotda samarali bajarilayotganligi holati, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamoat xavfsizligi ta'minlanayotganligi darajasi tahlil qilish;

respublikada kriminogen vaziyatni tizimli tahlil va prognoz qilish, undagi o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirish, ichki ishlar organlari faoliyatini jinoyatchilik holati va unga qarshi kurashish natijalarini o'rganish asosida

rejalashtirish;

ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, shuningdek jinoyat ishlarini tergov qilish, kriminogen vaziyatni prognoz qilish amaliyotiga doir faoliyatining samaradorligini kompleks hamda tizimli tahlil qilishni tashkil etish;

yo'l harakati xavfsizligi, yong'in xavfsizligini ta'minlash, shuningdek migratsiyani nazorat qilish va pasport tizimi talablariga rioya etilishi samaradorligini kompleks hamda tizimli tahlil qilish;

ko'chalar va boshqa jamoat joylarida qayd etilgan hodisalarni, huquqbuzarliklarni kompleks va tizimli tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda mavjud kuch va vositalardan

samarali foydalanish choralarini ko'rish;

ko'chalar va boshqa jamoat joylaridagi hodisalar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotlarni so'rab olish, umumlashtirish va tahlil qilish, shuningdek ularning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha takliflar

tayyorlash;

fuqaroviy va xizmat qurollarining axborot ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritishni tashkillashtirish hamda amalga oshirish, profilaktik tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish maqsadida ularni tahlil qilib borish;

fuqaroviy va xizmat qurollari, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallar, ammiakli selitra, pirotexnika buyumlari, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlari muomalada bo'ladigan sohadagi faoliyatni

amalga oshirishda xavfsizlik tizimining zaif jihatlarini tahlil qilib borish, ularni xarid qilish, hisobga olish, taqsimlash, tashish va ulardan maqsadli foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat o'rnatishning ta'sirchan tizimini tashkil

etish;

ko'chalar va boshqa jamoat joylaridagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish bo'yicha patrul`-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bo'linmalari faoliyati samaradorligini tahlil va

monitoring qilish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tizimini takomillashtirish, ko'chalar va boshqa jamoat joylarida yuzaga kelayotgan tezkor vaziyatning videokuzatuvini, shu jumladan, psixologik vizual tahlilni amalga oshirish;

jinoyat ishlarini tergov qilish amaliyotini, ichki ishlar organlarining tergov bo'linmalarida surishtiruv va dastlabki tergovning asosiy ko'rsatkichlarini umumlashtirish, tahlil qilish, baholash;

jinoyatlarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni aniqlash, umumlashtirish va tahlil qilish;

mahallalarda aniqlangan muammolarni har tomonlama chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida tumanlar (shaharlar)ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha «yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda amalga oshirish;

Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish;

hududning ishchanlik muhiti va ishchanlik faolligini tahlil qilish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga to'siq bo'layotgan dolzarb muammolarni hal etishga ko'maklashish, shakllangan tadbirkorlik madaniyati va mahalliy an'analar, hududning

o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish darajasini inobatga olgan holda, hududni rivojlantirish bo'yicha manzilli amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va bunga imkon yaratadigan shart-sharoitlarni tizimli tahlil qilish, ularni, shu jumladan qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish orqali

bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati uchun asos bo'lgan qonun buzilishi holatlari va boshqa muammolarni kompleks va tizimli tahlil qilishni amalga oshirish, shuningdek qonun buzilishlarini bartaraf etish va muammolarni hal etishga

doir takliflar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tahlil qilish va baholash, ularni kompleks tekshirish va nazorat qilish, amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, shu jumladan ish natijadorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasining ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish sohasidagi qarorlarini o'z vaqtida, bir xilda va to'liq bajarilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish;

ichki ishlar organlarining huquqni qo'llash amaliyotida yagona huquqiy siyosat va nazoratni tashkil etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha

taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xizmat o'tashni qat'i nazorat qilish va tarbiyaviy jarayonni ta'minlash sohasida muvofiqlashtirish, tahliliy va uslubiy ishlarni kuchaytirish bo'yicha faoliyatni tashkil qilishning sifat jihatdan yangi tartibni belgilash;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish;

ichki ishlar organlari tizimida maxfiylik tartibotiga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, samarali ish yuritish va hujjatlar aylanishini hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimini yo'lga qo'yish<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli hamda 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-son Farmonlari, 2018 yil 23 avgustdagi «Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3919-son qarori, ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan ichki ishlar organlarining idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari talablaridan kelib chiqib ichki ishlar organlari faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilishda uning asosiy yo'nalishlari belgilab olinadi.

**Ichki ishlar organlari faoliyatni ko'rsatkichlarini tahlil qilish uning quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiradi:**

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ko'rsatkichlari;
- jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash ko'rsatkichlari;
- tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o'tkazish ko'rsatkichlari;
- jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo'yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo'li bilan kurashish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish ko'rsatkichlari;
- huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash ko'rsatkichlari;
- ehtiyot choralari, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari ijro etish, shuningdek shaxslarni qidirish ko'rsatkichlari;
- ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, ma'muriy jazolarni qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish ko'rsatkichlari;
- yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash ko'rsatkichlari;
- pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylashtirishga doir ishlarni, pasport tizimiga va O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirish ko'rsatkichlari;

<sup>1</sup> . Ismoilov I., Ziyodullaev M Z va boshqalar. Axborot-tahliliy faoliyat asoslari: Darslik. 2015

- fuqaroviy va xizmat qurollarining hamda ular o'q-dorilarining, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, psixotrop moddalarning va ular prekursorlarining muomalada bo'lishi sohasida nazorat qilish ko'rsatgichlari;
- ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish ko'rsatgichlari;
- davlat ob'ektlarini, o'ta muhim, toifalangan ob'ektlarni va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash ko'rsatgichlari;
- litsenziyalash va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, shuningdek litsenziya va ruxsat etishga oid talablarga hamda shartlarga rioya etilishini nazorat qilish ko'rsatgichlari;
- harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish ko'rsatgichlari;
- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir ishlarda ishtirok etish ko'rsatgichlari<sup>2</sup>.

Ichki ishlar organlarida amalga oshiriladigan tahliliy ish juda ko'p qirrali va xilma-xildir. Unda bir nechta mustaqil yo'nalishlar ajratiladi. Ularning har biriga o'z maqsadi hamda to'planishi, o'rganilishi va baholanishi kerak bo'lgan dastlabki axborotning tegishli turlari va hajmi xosdir. Bu yo'nalishlarga quyidagilar kiradi :

a) uzoq vaqt (5–15 yil) davomidagi huquqbuzarliklarning tamoyillarini, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va ichki ishlar organlarining faoliyatini o'rganish. Tahlilning ushbu turidan ko'zlangan maqsad ushbu tamoyillarning o'zgarishi mumkinligi haqida istiqbolni belgilovchi xulosalar chiqarish, shu asosda ularni neytrallashtirishga, huquqiy tartibni mustahkamlashga va ichki ishlar organlari tizimining faoliyatini takomillashtirishga oid tadbirlar ishlab chiqish.

Bu turdagi tahlilning zarurligi ichki ishlar organlari, har qanday ijtimoiy tizim kabi, o'z strategiyasiga egaligi bilan bog'liq. Huquqbuzarliklarning rivojlanish qonuniyatlari va tamoyillarini, ularni keltirib chiqaruvchi tashqi muhitdagi kriminogen va aksilkriminogen omillarni, shuningdek ichki ishlar organlari tizimining o'zidagi ahvol va faoliyatni anglab olmay turib, bunday strategiyani ishlab chiqish mumkin emas;

b) operativ vaziyatni kompleks tahlil etish (chorak yil, yarim yil, 9 oy va bir yil). Ushbu turdagi tahlildan huquqiy tartibning ahvolidagi o'zgarishlarni hamda tashqi muhit omillarini, shuningdek bunday o'zgarishlarni keltirib chiqargan ichki ishlar organlaridagi ahvol va faoliyatni aniqlash maqsadi ko'zlanadi. Operativ vaziyatni kompleks tahlil qilish jarayonida xizmat ko'rsatish hududining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlari; eng ko'p sodir etiladigan huquqbuzarliklarning sodir etilish vaqti, joyi va o'ziga xos jihatlari; huquqbuzarliklar sodir etilishining aniqlangan sabablari va ularga imkon bergan sharoitlar hamda ularni bartaraf etish choralari; g'ayriqonuniy qilmishlarni sodir etuvchi yoki profilaktik, operativ va boshqa turdagi hisoblarda turuvchi shaxslar; ichki ishlar organlarining faoliyati haqidagi ijtimoiy fikr, shuningdek ichki ishlar organining sohaviy xizmatlaridagi ahvol va faoliyatning natijalari xususidagi fuqarolarning xatlari, shikoyatlari, arizalarini hamda ommaviy axborot vositalarining maqolalarini o'rganish materiallari tekshiriladi va tadqiq etiladi.

<sup>2</sup> . Ichki ishlar organlarida boshqaruv va axborot-tahlil faoliyati asoslari: Darslik / I. Ismailov, D.S.Muxamadaliyev, E.U. Azizov;. – T: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019

Tahlil xulosalarida: huquqiy tartibning ahvoli baholanadi hamda tahlil qilinayotgan davrda unda yuz bergan o'zgarishlar tavsiflanadi; ushbu hudud uchun eng dolzarb va xos bo'lgan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jamoat tartibini, shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlikni saqlash muammolari ta'riflanadi; operativ vaziyat murakkablashgan hududlar va ob'ektlar belgilanadi, buning sabablari aniqlanadi; organning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish borasidagi ishlarining natijalari baholanadi, uning faoliyatidagi asosiy kamchiliklar sanab o'tiladi, shuningdek operativ vaziyatning o'zgarishi va favqulodda holat yuzaga kelishi mumkinligi haqida asoslangan taxminlar ilgari suriladi.

Shunday qilib, operativ vaziyatni kompleks tahlil qilish natijalari ichki ishlar organlari ishini joriy rejalashtirish (shahar, tuman va ichki ishlar organlarining tarmoq bo'linmalari ishining yarim va chorak yillik rejalarini tuzish) uchun asos bo'ladi. Ular asosida kuch va vositalarning joylashishiga o'zgartishlar kiritiladi hamda eng ko'p tarqalgan va xavfli huquqbuzarliklarga qarshi kurashni kuchaytirish yuzasidan qarorlar qabul qilinadi; huquqiy tartibning hamda organ operativ xizmat faoliyatining ahvoli haqida davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va aholiga, shuningdek yuqori turuvchi ichki ishlar organlariga xabar beriladi;

v) operativ vaziyatning joriy (uzluksiz) tahlili sutkalik, 10 kunlik va bir oylik axborotni baholash asosida amalga oshiriladi. Ushbu turdagi tahlildan ko'zlangan maqsad organga uzluksiz operativ rahbarlik qilinishini ta'minlashdan iborat. Bu esa tegishli ish rejalariga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritish, kuch va vositalarning joylashishini o'zgartirish hamda muayyan tadbirlarni maqsadga muvofiqroq o'tkazish imkonini beradi. Shunday qilib, joriy tahlil jinoyatchilikning va boshqa huquqbuzarliklarning ahvoli haqidagi sutkalik, 10 kunlik, bir oylik axborotni tadqiq etish hamda voqealarning ko'ngilsiz rivojlanishini cheklash yuzasidan kechiktirib bo'lmas choralar ko'rishga mo'ljallangan bo'lib, kompleks tahlildan asosan dastlabki axborot (ma'lumotlar) hajmining cheklanganligi hamda tekshiruvning chuqurligi bilan ajralib turadi;

g) huquqiy tartibning ahvoli va ichki ishlar organlarining faoliyatidagi ayrim muammolarni juz'iy tahlil qilish ichki ishlar organlarida kompleks yoki joriy tahlil yo'li bilan olingan axborot aniqlangan tamoyilni yoxud qaror topgan tamoyildan chekinish yoki ilgari uchramagan muayyan vaziyatni tushuntirish uchun yetarli bo'lmagan hollarda amalga oshiriladi. Muammo huquqiy tartibning ahvolidagi xususiyatlarni aniqlashda, ob'ektiv omillarning unga ta'siri aniq bo'lmaganida, organ tashqi muhit sharoitlariga mos tarzda tashkil etilmaganida, u samarasiz faoliyat ko'rsatganida va boshqa hollarda yuzaga kelishi mumkin (masalan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining yuqori darajadali sabablari, muqaddam sudlanganlar o'rtasida profilaktika ishlari olib borishdagi kamchiliklar va h. k.)<sup>3</sup>.

Juz'iy tahlil natijalaridan (ularning miqyosi va amalga oshirish imkoniyatlaridan kelib chiqib) ko'pincha maxsus va operativ qarorlar qabul qilishda, turli xil kompleks, namunaviy va bir martali operatsiyalarni o'tkazishda foydalaniladi. Tahliliy ishning asosiy yo'nalishlari birgalikda tekshirilayotgan hodisaning mohiyati va tabiati har tomonlama o'rganilishini, ushbu hodisalarda yuz berayotgan o'zgarishlar, ularning o'zaro aloqadorliklari va bir-biri bilan bog'liqligi tushuntirilishini ta'minlaydi<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> . Ichki ishlar organlarida boshqaruv va axborot-tahlil faoliyati asoslari: Darslik / I. Ismailov, D.S.Muxamadaliyev, E.U. Azizov; – T: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019

<sup>4</sup> . Paramonov V.V.Axborot-tahliliy ish asoslari. Toshkent, Oliy maktab Strategik tahlil va prognozlash, 2002 yil

Axborot-tahlil faoliyati har qanday jamiyatda va ijtimoiy hayyotning turli sohalarida doimo amalga oshirib kelinmoqda. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari har tomonlama tahlil qilish xamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturi eng muhim yo'nalishlarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisida anjuman qatnashchilariga: "qilinggan ishga doir hisobotlarga berilmasdan, asosiy diqqat-etiborni mavjud kamchiliklar va ularning ildizlarini puxta tahlil qilishga qaratish zarurligi"<sup>5</sup> haqida takidlagan edilar.

Bu esa jamiyatdagi dolzarb masalalarni xar tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'lash amaliyoti va ilg'or usullarini yaratilishiga bo'lgan ehtiyojlarning mavjudligini bildiradi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida axborot-tahlil ishi esa Ichki ishlar vazirlining barcha tarkibiy tuzilmalarida va hududiy boshqarma (bo'lil)larida samarali tarzda amalga oshirilib kelinmoqda.

### References:

1. <https://president.uz/oz/lists/view/3311>
2. <https://lex.uz/ru/docs/-3877315>
3. Ichki ishlar organlarida boshqaruv va axborot-tahlil faoliyati asoslari: Darslik / I. Ismailov, D.S.Muxamadaliyev, E.U. Azizov;. – T: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.
4. Paramonov V.V.Axborot-tahliliy ish asoslari. Toshkent, Oliy maktab Strategik tahlil va prognozlash, 2002 yil.
5. Ismoilov I., Ziyodullaev M Z va boshqalar. Axborot-tahliliy faoliyat asoslari: Darslik. 2015.

---

<sup>5</sup> [lex.uz/acts/-5841063](http://lex.uz/acts/-5841063)